

G‘OYAVIY KURASH KUCHAYAYOTGAN BIR SHAROITDA INSONLAR ORASIDAGI ALOQALARING FAOLLASHUVI

Abdurasulov Muxtorbek Bo‘ri o‘g‘li

*Termiz Davlat Pedagogika instituti, Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti,
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi, talabasi*

Annotatsiya: Maqolada bugungi global davrda kuchayib borayotgan mafkuraviy kurashlar va ularning insonlar orasidagi ijtimoiy, madaniy, ma’naviy aloqalarga ko‘rsatgan bevosita va bilvosita ta’siri keng tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining roli, mafkuraviy immunitet, milliy g‘oya asoslari, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi nazariyalari hamda o‘zbek va chet ellik olimlar fikrlari asosida ilmiy tahlillar beriladi.

Kalit so‘zlar: G‘oyaviy kurash, Mafkuraviy tahdid, Insonlararo aloqalar, Axborot urushi, Madaniy ekspansiya, Mafkuraviy immunitet, Ijtimoiy tarmoqlar, Milliy g‘oya, Kommmunikatsiya nazariyasi, Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, Axborot xavfsizligi, Ijtimoiy ong, Global aloqa tizimi, Virtual muloqot, Ma’naviy xavfsizlik.

XXI asrga kelib, insoniyat hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning kuchayishi, jamiyatda g‘oyaviy bo‘shliqlar paydo bo‘lishi natijasida insonlar orasidagi aloqalar keskin faollashdi. Aloqalar son jihatdan emas, balki mazmun jihatidan ham murakkablashmoqda.

Bugungi kunda mafkuraviy kurashlar tobora murakkablashib, ochiq va yashirin shakllarda olib borilmoqda. Bu kurashning bosh maydoni – inson tafakkuri va dunyoqarashidir. Bu borada fransuz faylasufi Mişel Fuko shunday deydi: “Zamonaviy kuch nazariyasi tanaga emas, ongga ta’sir ko‘rsatishni o‘ziga maqsad qiladi” [2. 27].

G‘oyaviy kurashlar tarixan mavjud bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ular axborot vositalari orqali tobora kuchaymoqda. Ular quyidagicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda:

Axborot urushi – yolg‘on ma’lumotlar, manipulyativ kontentlar orqali ongga ta’sir qilish;

Madaniy ekspansiya – begona qadriyatlarni jozibali shaklda singdirish;

Mafkuraviy neytralitet niqobi – milliylikdan voz kechishga undovchi g‘oyalar.

Yuqoridagi shakllar global axborot maydonini egallab, milliy g‘oya va qadriyatlarga qarshi kurash olib borishga xizmat qilmoqda. Amerikalik tadqiqotchi Semuel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasiga ko‘ra: “Yaqin kelajakda insoniyat tarixidagi eng asosiy ziddiyatlar madaniyatlar va g‘oyalar o‘rtasida bo‘ladi” [3.21].

Zamonaviy davrda insonlar o'rtasidagi aloqa faqat shaxsiy, oilaviy, mehnat doirasidagi munosabatlar bilan cheklanib qolmaydi. Aloqalar endi global axborot maydonida, virtual olamda ham shakllanmoqda [6.73]. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

Ijtimoiy tarmoqlar – Facebook, Telegram, Instagram, TikTok orqali muloqotlar;

Ommaviy madaniyat mahsulotlari – kino, musiqalar, reklama orqali g'oya singdirish;

Mobil ilovalar va sun'iy intellektlar – ong ostiga ta'sir qiluvchi kontentlar.

Ijtimoiy aloqalarning kuchayishi ikki yo'nalishda baholanishi mumkin:

1. Ijobiy jihatlar:

Tezkor axborot almashinushi;

Globallashuvga moslashish;

O'zaro hamkorlik va tolerantlikning ortishi.

2. Salbiy jihatlar:

Begona g'oyalarning jozibali niqob ostida tarqalishi;

Mafkuraviy ziddiyatlar;

Virtual do'stlik va ijtimoiy yolg'izlik paradoksining kuchayishi.

Bunday holatni amerikalik psixolog Sherri Turkle quyidagicha izohlaydi:

“Biz texnologiyalar orqali tobora ko'proq bog'lanamiz, lekin shu bilan birga tobora yolg'izlanamiz” [4.14].

Agar insonlar o'rtasidagi aloqalar ijobiy g'oyalar, milliy qadriyatlar, o'zligimizni mustahkamlovchi mafkura asosida shakllansa, bu jamiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Aks holda, bu aloqa milliylikdan uzoqlashish, mustaqil fikrni yo'qotish, ko'rko'rma taqlidga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu masala yuzasidan quydagи fikrlarni ta'kidlaydi:

“Bugungi kunda ma'naviy xavfsizlik, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalasi – millat va davlat mustaqilligining asosiy kafolatidir” [1. 89]. Shu bois, kommunikatsiya faolligi va g'oyaviy barqarorlik o'zaro bog'liq tushunchalardir.

Insonlar o'rtasidagi aloqa sotsiologiya, psixologiya va falsafa fanlarida keng o'rganiladi. Jamoaviy ong, ijtimoiy kapital, kommunikatsion simvolizm nazariyalari bu jarayonni chuqur yoritadi. “Ijtimoiy maydon” tushunchasi orqali insonlar aloqasini ijtimoiy resurslar asosida tahlil qiladi: “Har bir ijtimoiy munosabat — bu kuch uchun kurash maydonidir” [5.56].

Bugungi g'oyaviy kurash sharoitida insonlar o'rtasidagi aloqalar faollashib borayotgan bo'lsa-da, bu faoliy bir yoqlama emas. Uni to'g'ri yo'naltirish, milliy g'oya asosida shakllantirish, yoshlar ongida mafkuraviy immunitet yaratish eng muhim vazifadir. Shuning uchun:

Ma'naviy targ'ibot vositalarini kuchaytirish;

Ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish;
Ta’lim tizimida mafkura va axborot madaniyatini o‘rgatish zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Ma’naviy taraqqiyot yo’lida*. – T.: O‘zbekiston, 2020. – 89 b .
2. Foucault M. *Discipline and Punish: The Birth of the Prison*. – NY.: Vintage Books, 1995. – 27 b.
3. Huntington S. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. – NY: Simon & Schuster, 1996. – 21 b.
4. Turkle S. *Alone Together*. – NY.: Basic Books, 2011. –14 b.
5. Yusupov M. *Globallashuv va g‘oyaviy tahdidlar*. – T.: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati, 2015. – 56 b.
6. Baxtiyorov U. *Axborot xavfsizligi va yoshlar ongini himoya qilish*. – T.: Ma’naviyat, 2020. – 73 b.
7. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).
8. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G ‘OYALARI TARG ‘IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 281-285.
9. Ikromovich, P. K. (2024). A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH TO THE ESSENCE OF THE JADIDISM MOVEMENT. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(11), 175-181.
10. Rashidovna, H. M. (2023). TEMURIY MALIKALARNING HAYOTI VA FAOLIYATIGA TARIXIY NAZAR. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(4), 763-772.
11. Rashidovna, H. M. (2022). New Uzbekistan in the World's View: Achievements for Active Foreign Policy and Socio-economic Cooperation. International Journal on Integrated Education, 5(6), 423-427.